

«TASDIQLAYMAN»

Din ishlari bo'yicha qo'mita
raisining birinchi o'rinbosari

D.Maxsudov

2024-yil 3-dekabr



O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida bo'lib o'tgan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2024-yildagi Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-124 Farmoni" ijrosiga bag'ishlangan ochiq muloqot yig'ilishi
BAYONI № 1

2024-yil 3-dekabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari
bo'yicha qo'mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi
X.Ishmatbekov

Ishtirok
etganlar:

Kengash a'zolari
(Ro'yxat asosida)

KUN TARTIBI:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2024-yildagi Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-124 Farmoni" to'g'risida.

X.Ishmatbekov, D.Maxsudov, J.Karimov, Sh.Ziyodov, X.Ishmatbekov

Jamoatchilik kengashi raisi X.Ishmatbekov – yig'ilish ishtirokchilariga ushbu tadbirni o'tkazilishining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2024-yildagi Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-124 Farmonida berilgan topshiriqlarni ko'rib chiqish va belgilangan vazifalarni bajarish lozimligi to'g'risida gapirib o'tdi.

Raisi o'rinbosari D.Maxsudov – kengash qatnashchilariga Farmon haqida to'laqonli ma'lumot bera turib: fuqarolik jamiyati institutlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari etib belgilanganligi, davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy - ma'naviy va gumanitar sohalarini rivojlantirishda ularning o'rni, jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko'zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga ko'maklashish yo'lida tasirchan jamoatchilik

nazorati olib borilishini rag'batlantirish kabi masalalar borasida fikr mulohazalarni aytib o'tdi.

Jamoatchilik kengashi a'zosi J.Karimov – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-124 Farmonining 7.1 bandida nazarda tutilgan har yili vazirlik va idoralar fuqarolik jamiyati institutlariga byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha tanlovlar tashkil etishi. Bunda tanlovlar ustuvor ravishda inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murosasiz muhitni shakllantirish hamda ta'lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarning eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilish kerakligini ham alohida takildanib o'tdi.

Jamoatchilik kengashi a'zosi Sh.Ziyodov – jamiyatimiz hayoti uchun muhim kun bo'lgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengash deputatlari saylovida faol ishtirok etgan Qo'mitaning 8 nafar xodimlarini budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan mukofotlantirish PF-124 Farmonning ijrosi yuzasidan bo'ladi deya taklif berdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, Jamoatchilik kengashi
QAROR QILADI:

1. 2024-yil 27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengash deputatlari saylovida faol ishtirok etgan xodimlarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan rag'batlantirilsin.

2. Mazkur kengash yig'ilishi bayoni ijrosini ta'minlash bilan bog'liq barcha tashkiliy chora-tadbirlar kengash mas'ul kotibi N.Saydullayev zimmasiga yuklatilsin.

3. Mazkur bayonda belgilangan vazifalarning nazoratini Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari D.Maxsudov olib borsin.

Mas'ul kotib:

N.Saydullayev